Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

MUSTAQILLIK YILLARIDA URGANCH SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOTI TARIXI (1991–2023-YILLAR): MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATI MISOLIDA

Ro'zigul Kadirovna Allaberganova*
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
✉ ruzigulallaberganova467@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda 1991–2023-yillarda Urganch shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti madaniyat muassasalari faoliyati misolida tahlil qilinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mavjud madaniy infratuzilmani saqlab qolish, milliy qadriyatlarni tiklash va aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirish masalalari, keyingi bosqichlarda esa teatr, kutubxona, madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablari, istirohat bog'lari hamda ommaviy tadbirlar tizimini yangilash jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, 2017–2023-yillarda madaniyat va san'at sohasidagi davlat siyosatining faollashuvi, muassasalar moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi, raqamli xizmatlarning joriy qilinishi va yoshlar bilan ishlashning yangi shakllari Urganchning shahar madaniy muhitiga ko'rsatgan ta'siri ochib berilgan. Madaniyat muassasalari faoliyati shaharning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi, ijtimoiy hamjihatligi va xizmatlar iqtisodiyoti rivojiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so'zlar

Urganch shahri, mustaqillik yillari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, madaniy rivojlanish, madaniyat muassasalari, teatr, kutubxona, madaniyat markazi, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira.

DOI: 10.5281/zenodo.21743179

KIRISH

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda milliy tarixni qayta anglash, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, ona tiliga, urf-odat va an'analarga e'tiborni kuchaytirish davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu jarayonda madaniyat muassasalari aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi tashkilot bo'lish bilan cheklanmay, tarixiy xotirani saqlash, milliy o'zlikni mustahkamlash va avlodlar o'rtasidagi madaniy vorislikni ta'minlash vazifasini ham bajardi.

Urganch shahri Xorazm viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida mustaqillik davridagi o'zgarishlarni o'zida yaqqol namoyon etdi. Shaharda ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, transport, ta'lim va turizm sohalarining rivojlanishi aholi soni, shahar infratuzilmasi va madaniy xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Natijada teatr, axborot-kutubxona markazlari, madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablari, ijodiy jamoalar, ko'rgazma maydonlari hamda madaniyat va istirohat bog'larining jamiyat hayotidagi o'rni kengaydi.

Mazkur mavzuni o'rganishning dolzarbligi shundaki, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi odatda sanoat, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Biroq shahar taraqqiyotining sifati aholining madaniy hayotda ishtiroki, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishi, san'at va kitobxonlikdan foydalanish imkoniyati, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu

bois Urganchning 1991–2023-yillardagi rivojlanish tarixini madaniyat muassasalari faoliyati misolida yoritish shahar tarixining ijtimoiy va ma’naviy tomonlarini yaxlit anglash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Mustaqillikning dastlabki bosqichi, ya’ni 1991–2000-yillarda mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq murakkab jarayonlar kechdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar madaniyat muassasalarining moliyaviy imkoniyatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, Urganch shahrida mavjud teatr, kutubxona, madaniyat uylari, bolalar musiqa maktablari va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini saqlab qolish muhim vazifa bo‘ldi. Mazkur davrda madaniyat muassasalari mustaqillik g‘oyasi, milliy davlatchilik tarixi, Navro‘z bayrami, ajdodlar merosi va xalq san’atini targ‘ib qiluvchi tadbirlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratdi.

Dastlabki yillarda sobiq tuzum mafkurasiga xizmat qilgan madaniy dasturlar mazmunan yangilandi. Madaniyat muassasalari faoliyatida Xorazmning qadimiy tarixi, xorazmshohlar davlati, Jaloliddin Manguberdi, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Ogahiy, Feruz va Komiljon Otaniyozov kabi tarixiy shaxslar va san’at namoyandalari merosiga murojaat kuchaydi. Bu holat Urganch shahrining nafaqat ma’muriy markaz, balki Xorazm tarixiy xotirasini zamonaviy shakllarda ifodalovchi madaniy makon sifatidagi mavqeyini mustahkamladi.

Urganchdagi Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati musiqali drama teatri mustaqillik yillarida shahar madaniy hayotining asosiy markazlaridan biri bo‘lib qoldi. Teatr sahnasida milliy tarix, inson qadr-qimmati, Vatanga sadoqat, oilaviy munosabatlar, ma’naviy tanlov va zamonaviy jamiyat muammolarini yorituvchi asarlar namoyish etildi. Teatr tomoshalari aholining estetik dunyoqarashini rivojlantirish bilan birga, tarixiy obrazlar va voqealarni badiiy talqin orqali ommalashtirishga xizmat qildi. Ayniqsa, o‘quvchi va talabalar uchun tashkil etilgan jamoaviy tomoshalar teatrni yoshlar tarbiyasining samarali vositasiga aylantirdi.

Teatr faoliyatining shahar iqtisodiy hayotiga ham bilvosita ta’siri mavjud. Spektakl va konsertlar tomoshabinlar oqimini shakllantirib, transport, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqa xizmat turlariga talabni oshiradi. Madaniy tadbirlar shahar markazidagi jamoat hududlaridan foydalanishni faollashtiradi va Urganchning viloyat aholisi uchun madaniy xizmatlar markazi sifatidagi rolini kuchaytiradi. Shu ma’noda teatr faqat san’at maskani emas, balki shahar xizmatlar iqtisodiyoti bilan o‘zaro bog‘langan ijtimoiy institut hisoblanadi.

1990-yillarda kutubxonalar asosan an’anaviy kitob fondi va o‘quv zallari orqali xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, keyingi davrda ularning vazifalari kengaya boshladi. Urganch shahridagi viloyat va shahar miqyosidagi axborot-kutubxona muassasalari kitobxonlarga adabiyot taqdim etish bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, kitob taqdimotlari, adib va olimlar bilan suhbatlar, ko‘rgazmalar hamda yosh kitobxonlar tanlovlarini tashkil etdi. Mahmud Zamaxshariy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi hududdagi axborot va bibliografik xizmatlarning muhim bo‘g‘iniga aylandi.

Kutubxona tizimidagi o‘zgarishlar axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Elektron katalog, raqamlashtirilgan manbalar, internet xizmatlari va masofadan turib axborot olish imkoniyatlari kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish shakllarini yangiladi. Bu jarayon, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar va maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Urganchning ta’lim markazi sifatida rivojlanishi ilmiy, o‘quv va badiiy adabiyotlarga talabni oshirdi hamda kutubxonalarni shahar intellektual muhitining muhim tarkibiy qismiga aylantirdi.

2001–2016-yillar Urganch shahrida iqtisodiy barqarorlashuv va infratuzilmani yangilash jarayonlari jadallashgan davr bo‘ldi. Shaharda yangi turar joylar, ta’lim va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etilishi bilan birga, jamoat joylari, xiyobonlar va madaniy maskanlarni obodonlashtirishga e’tibor kuchaydi. Muhammad al-Xorazmiy va Abu Rayhon Beruniy nomlari bilan bog‘liq me’moriy majmualar, maydonlar va ramziy obyektlar shahar qiyofasida tarixiy xotirani ifodalovchi muhim belgilarga aylandi. Bunday makonlar davlat bayramlari, ilmiy-ma’rifiy tadbirlar va ommaviy sayillarning o‘tkazilishiga xizmat qildi.

Mazkur davrda madaniyat markazlari va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatida Xorazmning nomoddiy madaniy merosini saqlashga alohida e’tibor berildi. Xalq qo‘shiqlari, lapar va yallalar, baxshichilik, maqom, milliy raqs, dorbozlik, milliy libos va marosim folklorini targ‘ib qiluvchi to‘garaklar turli yoshdagi aholini ijodiy faoliyatga jalb etdi. Xorazm “Lazgi”si va mahalliy ijrochilik an’analarini sahna orqali namoyish etish milliy san’atning kundalik madaniy hayotdagi davomiyligini ta’minladi.

Bolalar musiqa va san’at maktablari Urganch shahrining madaniy kadrlar zaxirasini shakllantirishda muhim o‘rin tutdi. Mazkur muassasalarda musiqa ijrochiligi, an’anaviy xonandalik, raqs, tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishlarida ta’lim olgan yoshlar keyinchalik professional ta’lim muassasalari, teatr, filarmoniya, madaniyat markazlari va ijodiy jamoalarda faoliyat yuritish imkoniga ega bo‘ldi. Shu tariqa madaniyat muassasalari tizimi bolalikdan boshlab iste’dodni aniqlash, uni qo‘llab-quvvatlash va kasbiy faoliyatga yo‘naltirishning uzluksiz mexanizmini yaratdi.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasini boshqarish, muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va aholining madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qaror madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha kompleks vazifalarni belgiladi. 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmonda milliy madaniyatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini oshirish, moddiy va nomoddiy merosni saqlash hamda xalq ijodiyotini ommalashtirish masalalariga e’tibor qaratildi [3].

2021-yilda qabul qilingan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun madaniyat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini tizimlashtirdi [2]. 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorda hududlardagi madaniyat va san’at tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash, mahallalar kesimida madaniy-ma’rifiy va konsert-tomosha tadbirlarini tashkil etish, havaskorlik jamoalari va to‘garaklar faoliyatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilandi [4]. Ushbu hujjatlar Urganch shahridagi madaniyat muassasalarining mahalla, maktab, oliy ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish uchun muhim tashkiliy asos yaratdi.

2017–2023-yillarda Urganchda madaniy tadbirlarning mavzu va shakllari yanada xilma-xillashdi. Mustaqillik va Navro‘z bayramlari, xotira va qadrlash tadbirlari, kitobxonlik haftaliklari, teatr festivallari, ijodiy uchrashuvlar, ko‘rgazmalar, yoshlar konsertlari hamda xalq sayillari shahar madaniy taqvimining muhim qismiga aylandi. Ochiq maydonlarda o‘tkaziladigan konsert va tomoshalar madaniy xizmatlarni muassasa binosidan tashqariga olib chiqib, aholining keng qatlamlarini qamrab olish imkonini berdi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari madaniyat muassasalari faoliyatining ko‘lamini ko‘rsatadi. 2022-yilda viloyatda 4 ta muzey faoliyat yuritib, ularga jami 431,8 ming kishi tashrif buyurgan. Shundan o‘quvchi va talabalar ulushi 33,3 foizni tashkil etgan [1, B. 2]. Urganch shahrida muzeylarga yakka tartibda tashrif buyuruvchilar 20,2 ming, ekskursiya tartibida qatnashganlar esa 8,4 ming kishini tashkil qilgan [1, B. 4]. Ushbu ko‘rsatkichlar tarixiy va madaniy merosga qiziqishning shahar aholisi va yoshlar orasida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

2022-yilda Xorazm viloyatida faoliyat ko‘rsatgan 2 ta teatrda 463 ta spektakl namoyish etilgan va ularga 81,1 ming tomoshabin tashrif buyurgan [1, B. 5]. Viloyatdagi konsert tashkiloti tomonidan 186 ta konsert o‘tkazilib, tinglovchilar soni 64,2 ming nafarga yetgan [1, B. 7]. Mazkur ko‘rsatkichlarda Urganchning viloyat markazi sifatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega, chunki asosiy professional teatr va konsert jamoalarining ijodiy, tashkiliy hamda ma’muriy faoliyati shaharda jamlangan.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari aholining ijodiy faolligini ta’minlovchi eng ommaviy muassasalar sirasiga kiradi. 2022-yilda Xorazm viloyatidagi 66 ta madaniyat va dam olish markazida 3 033 ta madaniy-ma’rifiy tadbir o‘tkazilib, ularda 358,1 ming kishi ishtirok etgan. To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari soni 308 tani, ularning ishtirokchilari esa 5 458 nafarni tashkil qilgan [1, B. 10]. Urganch shahar madaniyat muassasalari viloyat miqyosidagi tadbirlarni tashkil etish, uslubiy yordam ko‘rsatish va ijodiy jamoalar tajribasini ommalashtirishda muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajardi.

Madaniyat muassasalarining ijtimoiy ahamiyati ularning turli yosh va ijtimoiy guruhlarni yagona ma’naviy makonda birlashtira olishida ko‘rinadi. Bayramlar, konsertlar, teatr tomoshalari, kitobxonlik tadbirlari va ijodiy to‘garaklar mahalla aholisi, o‘quvchilar, talabalar, mehnat jamoalari va nuroniylarning muloqotini kuchaytiradi. Bunday tadbirlar jamiyatda hamjihatlik, o‘zaro hurmat, vatanparvarlik va mahalliy tarixga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Madaniyat muassasalari yoshlar siyosatining ham muhim tayanchiga aylandi. Turli tanlovlar, mahorat darslari, teatr studiyalari, raqs va musiqa to‘garaklari yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etib, ularni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga yordam beradi. Iqtidorli yoshlarning ijodiy chiqishlari uchun sahna va ko‘rgazma maydonlari yaratilishi ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, kelajak kasbini tanlashiga ijobiy

ta’sir ko‘rsatadi.

2020-yilda boshlangan pandemiya madaniyat muassasalari faoliyatiga jiddiy sinov bo‘ldi. Ommaviy tadbirlarning cheklanishi teatr, kutubxona va ijodiy jamoalarni yangi ishlash usullarini izlashga undadi. Onlayn konsertlar, videodarslar, virtual kitob ko‘rgazmalari, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’rifiy loyihalar va masofaviy tanlovlar madaniy xizmatlarning raqamli shakllarini kengaytirdi. 2021–2023-yillarda an’anaviy tadbirlar qayta tiklangan bo‘lsa-da, pandemiya davrida shakllangan raqamli tajriba muassasalar faoliyatining doimiy qismiga aylana boshladi.

Raqamlashtirish madaniyat muassasalarining auditoriyasini kengaytirish bilan birga, yangi muammolarni ham yuzaga chiqardi. Elektron fondlar yaratish, eski foto, qo‘lyozma, afisha va audioyozuvlarni raqamlashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda sifatli kontent tayyorlash uchun zamonaviy texnika va malakali mutaxassislar zarur. Urganch madaniyat muassasalari uchun tarixiy materiallarni yagona raqamli platformada jamlash, teatr spektakllari va folklor namunalari elektron arxivini yaratish, muassasalar xizmatlari haqida muntazam axborot berish istiqboldagi muhim vazifalardan biridir.

Urganch shahrining turizm salohiyati ko‘proq Xiva shahri bilan bog‘liq turistik yo‘nalishlar fonida namoyon bo‘lsa-da, viloyat markazidagi madaniyat muassasalari sayyohlik xizmatlarini to‘ldiruvchi muhim imkoniyatga ega. Teatr tomoshalari, milliy musiqa va raqs dasturlari, amaliy san’at ko‘rgazmalari, kitob va suvenir yarmarkalari sayyohlarning shaharda qolish muddatini uzaytirishi mumkin. Bu esa madaniyatning iqtisodiy qiymatini oshirib, hunarmandlar, ijrochilar, transport, ovqatlanish va savdo xizmatlari uchun qo‘shimcha talab yaratadi.

Shu bilan birga, 1991–2023-yillardagi taraqqiyot jarayonida ayrim muammolar ham saqlanib qoldi. Muassasalarning moddiy-texnik ta’minoti bir xil darajada emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ayrim tadbirlarning bir xil mazmunda takrorlanishi, yosh auditoriya ehtiyojlarini yetarlicha o‘rganmaslik va marketing faoliyatining sustligi shular jumlasidandir. Madaniy xizmatlarning sifatini oshirish uchun auditoriya fikrini muntazam o‘rganish, zamonaviy repertuar va loyihalarni rivojlantirish, xususiy sektor va homiylar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Madaniyat muassasalari faoliyatini baholashda tadbirlar soni yoki tashrif buyuruvchilar miqdori bilan cheklanib qolmaslik kerak. Tadbirning tarbiyaviy va ma’rifiy ta’siri, turli yosh guruhlarini qamrab olish darajasi, milliy merosni saqlashga qo‘shgan hissasi, ijodiy jamoalarning barqarorligi, raqamli auditoriya hajmi va aholining xizmatdan qoniqish darajasi ham muhim ko‘rsatkichlardir. Ana shunday kompleks yondashuv Urganch shahrining madaniy rivojlanish holatini aniqroq baholash imkonini beradi.

XULOSA

1991–2023-yillarda Urganch shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti o‘zaro bog‘liq holda kechdi. Iqtisodiy islohotlar, shahar infratuzilmasining kengayishi, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi madaniy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Madaniyat muassasalari esa aholining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash orqali shahar taraqqiyotining sifat jihatiga ta’sir ko‘rsatdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mavjud madaniy tizimni saqlash va uning mazmunini milliy g‘oyalar asosida yangilash ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, 2001–2016-yillarda infratuzilmani modernizatsiya qilish va tarixiy-madaniy makonni obodonlashtirish jarayoni kuchaydi. 2017–2023-yillarda esa sohani huquqiy va tashkiliy jihatdan rivojlantirish, muassasalar faoliyatini mahalla va ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarni keng jalb qilish hamda raqamli xizmatlarni joriy etish yangi bosqichni boshlab berdi.

Kelgusida Urganch shahridagi teatr, kutubxona, madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablari hamda ijodiy jamoalar faoliyatini yagona shahar madaniy rivojlanish dasturi asosida muvofiqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Madaniy merosning raqamli arxivini yaratish, turizm bilan integratsiyalashgan dasturlarni ko‘paytirish, auditoriya ehtiyojlarini ilmiy o‘rganish va davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish Urganchning zamonaviy, jozibador va milliy o‘zligini saqlagan madaniy shahar sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Xorazm viloyatida madaniyat va san’at muassasalari faoliyati 2022-yilda. – Urganch, 2023. – 13 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

7. Xorazm viloyati musiqali drama teatri: teatr tarixi va faoliyatiga oid ma’lumotlar. O‘zbekiston Madaniyat vazirligining rasmiy madaniyat portali.

8. Urganch shahar hokimligi va Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasining 1991–2023-yillardagi madaniy-ma’rifiy tadbirlar va muassasalar faoliyatiga oid materiallari.